

MAMLAKAT BUDJET TIZIMINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

Ilmiy rahbar Aktam Burxanov

+998993032770

Shahinamamayusupova28@gmail.com

Annotatsiya: Davlat budjet tizimining moliyaviy xavfsizligining ahamiyati uning omillari, bo'g'inlari ko'rsatilgan. Mahalliy davlat pul mablag'larining daromadlari va xarajatlari ularning muvozanatga erishishlari, budjet hajmi va u orqali taqsimlanadigan YaIM hajmi, moliyalashtirish manbalari va g'aznachilik ijrosi budjet tizimining moliyaviy xavfsizligining asosiy omillari ekanligi qayd etilgan. O'zbekistonda budjet kamomadining yillar kesimidagi ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Budjet, tizim, prognoz, moliya YaIM, ko'rsatkich, Daromad, xarajat, xavfsizlik, kamomad, g'aznachilik.

Davlatning moliyaviy sohasi deyilganda albatta budjet tizimi va uning xavfsizligi, uning ahamiyati shunidek funksiyalari tushuniladi. Moliyaviy ko'rsatkichlar ham budjet tizimining ma'lum bir asosi hisoblanadi. Ya'ni budjet tizimining hujjati moliyaviy raqamlashtirish asosida amalga oshiriladi. Mamlakatning ma'lum pul mablag'lari daromadlari va harajatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy hujjat davlat budjeti hisoblanadi. Budjet tizimining moliyaviy xavfsizligi mamlakat taraqqiyoti uchun o'ta muhim tamoyil hisoblanadi.

Byudjet tizimining moliyaviy xavfsizligida davlatning to'lov layoqati ta'minlanadigan, davlat budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari muvozanatiga erishiladigan, budjet mablag'larini taqsimlash sifati va oqilonaligi

ortadigan holatni ko'zda tutadigan tushuncha hisoblanadi. Davlatning budjet daromad daromadlari va xarajatlari muvozanatga erishilsa shunindek uning taqsimlash sifati muqobil va mukammal maqsadli bo'lsa budjet tizimining moliyaviy xavfsizligiga erishiladi. Buning uchun oldindan raqamlar va funksiyalar o'rtasida oldindan prognoz qilish talab etiladi.

Byudjet tizimining moliyaviy xavfsizlik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:

-budjet hajmi

- byudjet orqali taqsimlanadigan YaIM hajmi

- budjet taqchilligi mavjudligi, uni moliyalashtirish manbalari va hajmi, budjetdan

moliyalashtirish ko'lami, budjet intizomi darajasi, byudjet g'znachilik ijrosi sifati¹.

Mamlakatda budjet xavfsizligini ta'minlash uning mahalliy budjet xarajatlari va daromadlarining muvozanatga erishishi hamda to'lovga layoqatliligi bilan hamda budjet hajmi, budjet orqali taqsimlanadigan YaIM hajmi va budjet taqchilligining mavjudligi uning g'aznachilik ijrosi orqali o'lchanadi. Asosiy nazariyalardan ma'lumki davlat budjeti davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Davlat byudjeti muayyan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va harajatlari xususiyati hamda tarkibi turlicha bo'ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyot, ishlab chiqaruvchi, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashga faol aralashuvi davlat byudjeti mavqeining oshishiga sabab bo'ladi, milliy daromad davlat ixtiyorida yig'iladi va uning byudjet orqali qayta taqsimlanadigan qismi ko'payadi. 1995-yilda O'zbekistonda byudjet kamomadi 3 %, 1996-yilda 3,5 %, 1997-yilda 2,2 %, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning 1 % (32,8 mlrd. so'm)ga teng bo'ldi. Amalda bo'lgan

¹ Aktam Burxanov „Moliyaviy xavfsizlik“ 2019
www.pedaqoqlar.uz

qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan byudjetdan tashqari jamg'armalar (ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi jamg'armasi, yo'l jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mul-ki qo'mitasi jamg'armasi, mineral xom ashyo bazasini tak ishlab chiqarish fondi, o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlarining maxsus fondlari)ning maqsadli yo'nalishlarini saqlab qolgan holda, 1995-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining birlashgan byudjetiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida jami daromadlar va harajatlar o'zgarishlarida ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jaliklar va aholi daromadlarining o'sishi asosiy ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat byudjetini shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 1 yanvardan kuchga kirgan „Davlat byudjeti tizimi to'g'risida“ qonuni (2000-yil 14-dekabr)ga muvofiq olib boriladi. Byudjet harajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya'ni kamomadi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi millim mahsulotning 3—3,5 % ga teng bo'lishi me'yoriy hisoblanadi. Byudjet kamomadining g'oyat oshib ketishi va uni daromad bilan ta'minlash mumkin bo'lmaganda byudjet harajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy davlat byudjetlari va davlat byudjetidan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, byudjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig'indisi davlatning yigma byudjetini tashkil etadi. Davlat byudjeti, odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi.²

Bundan ko'rinib turibdiki davlat budjet tizimining moliyaviy xavfsizligiga erishish uchun uning kamomadi ya'ni defisitini oldindan aniq prognoz qilish kerak. Agarda budjet kamomadi ko'rsatkichlari oshib ketsa umumiy hisobdagi budjet xarajatlarining qisqarishiga olib keladi. Natijada aholining ijtimoiy ta'minotiga ta'sir qiladi. Buning oldini olish uchun budjet tizimining moliyaviy xavfsizlik

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_byudjeti
www.pedaqoqlar.uz

tamoyillarini keng targ'ib qilish va raqamlashtirish va sifatini qayta ko'rib chiqish va nazorat qilish talab etiladi.

Xulosaviy fikrlarim shundan iboratki, Har bir davlatning o'z budjet tizimi va uning moliyaviy siyosati mavjud. Va shu o'rinda davlat budjet tizimining moliyaviy xavfsizligi davlat xarajatlari va daromadlarining o'zaro mutanosibligini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari yillik mamlakat budjet tizimli hujjati moliyaviy xavsizlikning uning maqsadli ekanligini belgilab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek mamlakat mahalliy budjet pul mablag'larining daromadlari va xarajatlari mutanosibliyi ya'ni muvozanatiga erishiladigan, budjet mablag'lari taqsimlash sifati va oqilonaligi ortadigan holatni ko'zda tutadi. Mamlakat budjet tizimining moliyaviy xavfsizligi ahamiyatli va zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aktam Burxanov „Moliyaviy xavfsizlik “ 2019
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_byudjeti